# MUHANDISLIK & IQTISODIYOT

**№5**

*ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik, fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal*

**2026**
MAY



Milliy nashrlar

**OAK:** https://oak.uz/pages/4802

*05.00.00 - Texnika fanlari*
*08.00.00 - Iqtisodiyot fanlar*

Google Scholar
OPEN ACCESS
ULRICHSWEB GLOBAL SERIALS DIRECTORY
Academic Resource Index ResearchBib
ISSN INTERNATIONAL STANDARD SERIAL NUMBER INTERNATIONAL CENTRE
CYBERLENINKA
OpenAIRE
ROAD
INDEX COPERNICUS INTERNATIONAL
BASE
Crossref
НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ БИБЛИОТЕКА eLIBRARY.RU



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ
TOSHKENT DAVLAT TRANSPORT UNIVERSITETI
TOSHKENT ARXITEKTURA-QURILISH UNIVERSITETI

*Elektron nashr, 2026-yil, may.*

# muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

**Bosh muharrir:**
**Zokirova Nodira Kalandarovna,** iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

**Bosh muharrir o'rinbosari:**
**Shakarov Zafar G'afforovich,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

**Tahrir hay'ati:**
**Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich,** O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Sharipov Kongratbay Avezimbetovich,** texnika fanlari doktori, professor
**Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Shaumarov Said Sanatovich,** texnika fanlari doktori, professor
**Turayev Bahodir Xatamovich,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Nasimov Dilmurod Abdulloyevich,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Allayeva Gulchexra Jalgasovna,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Arabov Nurali Uralovich,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Xamrayeva Sayyora Nasimovna,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Bobonazarova Jamila Xolmurodovna,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Irmatova Aziza Baxromovna,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
**Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi,** iqtisodiyot fanlari doktori, professor,
**Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
**Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
**Amanov Otabek Amankulovich,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
**Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li,** texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
**Qurbonov Samandar Pulatovich,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
**Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
**Tabayev Azamat Zaripbayevich,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
**Sxay Lana Aleksandrovna,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
**Ismoilova Gulnora Fayzullayevna,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
**Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
**Kasimova Nargiza Sabitdjanovna,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
**Kalanova Moxigul Baxritdinovna,** dotsent
**Ashurzoda Luiza Muxtarovna,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
**Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
**Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
**Bauyetdinov Majit Janizaqovich,** Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD
**Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li,** Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
**Sultonov Shavkatjon Abdullayevich,** Kimyo fanlari doktori, (DSc)
**Jo'raeva Malohat Muhammadovna,** filologiya fanlari doktori (DSc), professor.
**Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich,** iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor
**Kalonova Moxigul Baxritdinovna,** iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
**Mirzayev Kulmamat Djanzakovich,** iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.
**Karimova Nilufar Sadirdin qizi,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
**Norboyev Odil Abrayevich,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
**Nasimov Dilmurod Abdulloyevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Mirzayev Kulmamat Djanzakovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Karimova Nilufar Sadirdin qizi,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
**Pardaev Umidjon Uralovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich,** Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)

# muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik, fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
05.01.07 – Matematik modellashtirish
05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
05.04.01 – Telekommunikasiya va kompyuter tizimlari, telekommunikasiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
05.08.06 – "G'ildirakli va gusenisali mashinalar va ularni ishlatish" (texnika fanlari)
05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 – Makroiqtisodiyot
08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 – Ekonometrika va statistika
08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 – Marketing
08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 – Menejment
08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ
Hamkorlarimiz:
1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti

# MUNDARIJA

STERJEN KO'NDALANG KESIM YUZASI ELLIPS SHAKLIDAGI TRANSFORMATORNING QISQA TUTASHUV PAYTIDAGI MEXANIK ZO'RIQISHGA CHIDAMLILIGI ........ 10
**Bekishev Allabergen Yergashevich, Yakubova Dilfuza Kuanishovna, Saidova Nozima Akkulovna**
ВЛИЯНИЕ ДЕМОГРАФИЧЕСКОЙ ДИНАМИКИ НА РАЗВИТИЕ СФЕРЫ УСЛУГ: ЭКОНОМЕТРИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ РЕГИОНОВ УЗБЕКИСТАНА ........ 19
**Мусаева Шоира Азимовна, Муйинжонов Хусейн Алишерович**
МЕЖДУНАРОДНЫЙ ОПЫТ ЦИФРОВИЗАЦИИ ЭНЕРГЕТИЧЕСКИХ КОМПАНИЙ И ВОЗМОЖНОСТИ ЕГО АДАПТАЦИИ В УЗБЕКИСТАНЕ ........ 28
**Габбарова Ильмира Володиевна**
BALAND BINOLAR FASADLARINI PARDOZLASH TEXNOLOGIYALARINI EKSPLUATATSION ISHONCHLILIK VA XIZMAT MUDDATINI UZAYTIRISH ASOSIDA OPTIMALLASHTIRISH ........ 34
**Amirov Shavkat Rahmatullayevich**
ИНТЕГРАЛЬНАЯ ОЦЕНКА УСТОЙЧИВОГО ЦИФРОВОГО РАЗВИТИЯ ТУРИЗМА И ЭФФЕКТИВНОСТИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ТУРИСТСКОГО ПОТЕНЦИАЛА БУХАРСКОЙ ОБЛАСТИ ........ 41
**Усманова Азиза Баходировна**
PEREGONDAGI HARAKATNI BOSHQARISH TIZIMLARINI MIKROPROTSESSORLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRILGAN TUZILMAVIY SXEMASINI ISHLAB CHIQISH ........ 46
**Xujamkulov Eldor G'ayratjon o'g'li**
INVESTITSIYALAR HAJMINI OSHIRISHGA QARATILGAN CHORA-TADBIRLAR VA ULARNI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI ........ 55
**Alimova Dilafro'z Tohir qizii**
HUDUDLAR KESIMIDA AHOLI O'SISHINING BANDLIK DARAJASIGA TA'SIRINI EKONOMETRIK BAHOLASH (O'ZBEKISTON MISOLIDA) ........ 61
**Xusniddinova Gulnoza Ulug'bek qizi**
QUYOSH FOTOELEKTRIK PANELLARI SAMARADORLIGIGA ATROF-MUHIT OMILLARI VA CHANGLANISHNING TA'SIRI HAMDA ULARNI KAMAYTIRISHGA QARATILGAN INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR ........ 67
**Botirov Bozorbek, Iskandarova Charos, Avazov Jonibek, Sultonov Abror**
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGINI RIVOJLANTIRISHNING HOZIRGI HOLATI TAHLILI ........ 75
**Rajapov Xayrulla Bekdurdiyevich, Sharipova Lobar Umrbek qizi**
INTERPOLATSION TIKLASH ALGORITMLARINING OCR ANIQLIGIGA TA'SIRINI BAHOLASH ........ 82
**Aliyev Nodirbek Hamidullo o'g'li**
IKORXONALARDA KORPORATIV BOSHQARUVNI TAKOMILLASHTIRISHNING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI VA INSTITUTSIONAL OMILLARI ........ 90
**Muxtorova Shaxlo Farxodovna**
O'ZBEKISTONDA QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA MANBALARINING RIVOJLANISH ISTIQBOLLARINI EKONOMETRIK PROGNOZLASH ........ 94
**Qo'ziboyev Behzod Hamidovich**
KPI-BASED PERFORMANCE MANAGEMENT AND ITS IMPACT ON EMPLOYEE PRODUCTIVITY ........ 99
**Sultanova Kamila Mukhtorali kizi**
SANOAT KORXONALARI IQTISODIY XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDA MARKETING VOSITALARIDAN FOYDALANISH AMALIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH ........ 104
**Tursunxo'jayev Sardor Jamoliddin o'g'li**
FARG'ONA VILOYATI MAHALLALARIDA TADBIRKORLIK VA HUNARMANDCHILIKNI RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOIY-IQTISODIY VA INSTITUTSIONAL OMILLARINI BAHOLASH ........ 110
**Tuxtasinov Zafarjon Odiljonovich**

MHXS STANDARTLARIGA O‘TISH: KORXONALAR UCHUN AMALIY MUAMMOLAR VA YECHIMLAR ..... 110
**Eshniyazova Yulduz Yuldashbayevna**

MUNDARIJA • СОДЕРЖАНИЕ • CONTENTS

# MHXS STANDARTLARIGA O‘TISH: KORXONALAR UCHUN AMALIY MUAMMOLAR VA YECHIMLAR



**Eshniyazova Yulduz Yuldashbayevna**
Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti
Biznes va boshqaruv kafedrasi dotsent v.b(PhD)

**Annotatsiya.** Maqolada Xalqaro Moliyaviy Hisobot Standartlari (MHXS)ga o‘tish jarayonida O‘zbekiston korxonalari duch keladigan amaliy muammolar tahlil qilingan, so‘rovnoma natijalari asosida muammolarning nisbiy og‘irligi aniqlangan va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan. Tadqiqot natijalari xalqaro standartlarga o‘tishni rejalashtiruvchi korxona rahbarlari va buxgalterlari uchun amaliy yo‘l-yo‘riq sifatida xizmat qilishi mumkin.

**Kalit so‘zlar:** MHXS, IFRS, BHMS, moliyaviy hisobot, buxgalteriya islohoti, xalqaro standartlar, adolatli qiymat, de-fakto tili.

**Аннотация.** В статье проанализированы практические проблемы, с которыми сталкиваются предприятия Узбекистана в процессе перехода на Международные стандарты финансовой отчетности (МСФО), определена относительная значимость проблем на основе результатов анкетирования и разработаны практические рекомендации. Результаты исследования могут служить практическим руководством для руководителей предприятий и бухгалтеров, планирующих переход на международные стандарты.

**Ключевые слова:** МСФО, IFRS, НСБУ, финансовая отчетность, бухгалтерская реформа, международные стандарты, справедливая стоимость, де-факто язык.

**Annotation.** The article analyzes the practical challenges faced by enterprises in Uzbekistan during the transition to International Financial Reporting Standards (IFRS), identifies the relative significance of these challenges based on survey results, and develops practical recommendations. The findings of the study may serve as practical guidance for company managers and accountants planning to adopt international standards.

**Keywords:** IFRS, NAS, financial reporting, accounting reform, international standards, fair value, de facto language.

## KIRISH

Jahon iqtisodiyotining globallashuvi va kapital bozorlarining integratsiyasi sharoitida moliyaviy hisobot ma’lumotlarining xalqaro darajada taqqoslanuvchanlik xususiyatiga bo‘lgan talab tobora kuchayib bormoqda. Moliyaviy Hisobotning Xalqaro Standartlari (International Financial Reporting Standards — IFRS) bugungi kunda 140 dan ortiq mamlakatda majburiy yoki ixtiyoriy tartibda qo‘llanilmoqda va moliyaviy hisobotning de-fakto universal tiliga aylangan.

O‘zbekiston Respublikasi 2017-yildan boshlab amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar doirasida buxgalteriya hisobi tizimini IFRSga moslashtirish yo‘lida bir qator muhim qadamlar tashladi. 2019-yil 13-apreldagi “Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida”gi O‘RQ-567-son Qonun [1], O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-fevraldagi “Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o‘tish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4611-son Qarori [2] hamda 2025-yil 15-sentabrdagi “Moliyaviy hisob tizimini xalqaro talab va standartlarga muvofiq takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-282-son Qarori [3] MHXSga bosqichma-bosqich o‘tishning huquqiy asosini yaratdi.

Biroq amaliyot shuni ko‘rsatadiki, huquqiy bazaning yaratilishi asosiy shartlardan biri bo‘lsa-da, buning o‘zi

hisob tizimini xalqaro talablarga moslashtirish uchun yetarli emas. O‘tish jarayoni bir qancha jiddiy va tizimli muammolar bilan bog‘liq bo‘lib, ularning hal qilinmasligi MHXSni joriy etishni kechiktiradi hamda tadbirkorlik subyektlari uchun qo‘shimcha xarajatlarni yuzaga keltiradi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

MHXSga o‘tish muammolari xalqaro ilmiy adabiyotlarda keng o‘rganilgan. Stephen A. Zeff (2012) xalqaro standartlarning milliy hisob tizimlariga ta’sirini tahlil qilib, institutsional to‘siqlarni asosiy omil sifatida belgilagan [4]. Christopher Nobes va Robert Parker (2020) rivojlanayotgan iqtisodiyotlar uchun o‘tish xarajatlarini modellashtirgan hamda kadrlar omilining ustun roliga e’tibor qaratgan [5].

O‘zbek olimlaridan Saidov (2023) O‘zbekistonda buxgalteriya islohotining soliq tizimi bilan o‘zaro munosabatini o‘rganib, ularning tarkibiy ziddiyatlarini aniqlagan [6]. Norov va Karimov (2024) esa O‘zbekistondagi 87 ta korxona misolida MHXSni joriy etishning moliyaviy ko‘rsatkichlarga ta’sirini empirik jihatdan tekshirib, ijobiy korrelyatsiyani isbotlagan [7].

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda quyidagi metodlardan foydalanilgan: tanlab o‘rganish metodi — 215 ta kompaniyani qamrab olgan so‘rovnoma; tizimli tahlil — muammolarni tartibga solish; qiyosiy tahlil — BHMS va IFRS standartlarini solishtirish; ekspert baholash — 12 nafar sertifikatlangan IFRS mutaxassisining fikrlarini o‘rganish.

## TAHLIL VA NATIJALAR

O‘zbekistonda 30 yildan ortiq davomida amal qilgan Buxgalteriya Hisobining Milliy Standartlari (BHMS) milliy hisob tizimining metodologiyasiga asoslanib, avvalo soliq organlari uchun mo‘ljallangan hisobot mantig‘ini davom ettirgan. IFRS esa mohiyatan investorlar va boshqa foydalanuvchilar uchun qaror qabul qilishda foydali bo‘lgan axborotni taqdim etish tamoyiliga asoslangan (1-jadval).

1-jadval
BHMS va IFRS o‘rtasidagi asosiy konseptual farqlar

| Mezon | BHMS (O‘zbekiston) | IFRS (Xalqaro standart) |
|---|---|---|
| Asosiy yo‘nalish | Soliq organlari uchun | Investor va kreditorlar uchun |
| Aktivlar baholash | Tarixiy tannarx | Adolatli qiymat (fair value) |
| Mohiyat va shakl | Shakl ustuvor | Mohiyat shakldan ustuvor |
| Moliyaviy ijara | Maxsus tartib | Balansda (IFRS 16) |
| Asosiy vositalar | Belgilangan normalar | Foydali xizmat muddati (IAS 16) |
| Zaxiralar | FIFO / o‘rtacha | FIFO / o‘rtacha (LIFO taqiq.) |
| Konsolidatsiya | Ixtiyoriy | Majburiy (IFRS 10) |
| Hisobot valyutasi | So‘m (majburiy) | Funksional valyuta (IAS 21) |
| Kechiktirilgan soliq | Nazarda tutilmagan | Majburiy (IAS 12) |

**Manba:** muallif tomonidan IASB va O‘zR Me’yoriy hujjatlari asosida tuzilgan.

1-jadvaldan ko‘rinib turibdiki, ikkita tizim o‘rtasida nafaqat texnik, balki falsafiy farqlar ham mavjud. Bu esa amalda buxgalterlardan mutlaqo yangicha iqtisodiy tafakkurni talab qiladi, bu esa o‘z navbatida katta pedagogik muammo hisoblanadi.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, eng ko‘p qayd etilgan muammo — IFRSni yuqori darajada biladigan mutaxassislarning yetarli emasligidir. O‘zbekistonda ACCA, CPA yoki CIMA sertifikatiga ega mutaxassislar soni 2024-yil boshiga ko‘ra 1 200 nafardan oshmaydi [8]. Bu rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlar orasidagi eng past ko‘rsatkichlardan biri hisoblanadi.

Ikkinchi dolzarb muammo — soliq qonunchiligi va IFRS o‘rtasidagi tarkibiy ziddiyatdir. O‘zbekistonda soliq solinadigan bazani hisoblash BHMS andozalariga asoslangan. Shu sababli IFRSga o‘tgan korxona bir vaqtning o‘zida ikkita parallel hisobni — biri soliq uchun, ikkinchisi moliyaviy hisobot uchun — yuritishga majbur bo‘ladi. So‘rovnoma ma’lumotlariga ko‘ra, bu yuk yirik korxonalarda buxgalteriya xarajatlarini 35–45 foizga oshiradi.

Texnologik infratuzilma bilan bog‘liq muammolardan biri shundaki, IFRS bo‘yicha to‘liq qiymatli hisobot tayyorlash uchun korxonalar real vaqt rejimida katta hajmdagi moliyaviy ma’lumotlarni qayta ishlay oladigan zamonaviy axborot tizimlariga muhtoj. Biroq so‘rovnomada qatnashgan korxonalarning 64 foizi hali ham 1C dasturining 7.7 yoki 8.2 versiyalaridan foydalanmoqda, ularning IFRSga to‘liq moslashish imkoniyati cheklangan.

ERP tizimlarini (SAP S/4HANA, Oracle Financials, 1C:ERP) joriy etish uchun zarur bo‘lgan sarmoya ko‘pchilik o‘rta korxonalar byudjeti uchun juda yuqori hisoblanadi.

Metodologik va konseptual muammolar orasida IFRSda o‘z-o‘zini baholash hamda kasbiy mulohaza (professional budgement) tamoyili markaziy o‘rin tutadi. Bu an’anaviy tartibga asoslangan BHMS muhitida ishlagan buxgalterlar uchun psixologik jihatdan eng murakkab o‘tishlardan biridir. Ekspert suhbatlari davomida mutaxassislar quyidagi metodologik muammolarni alohida ajratib ko‘rsatdilar:

– aktivlarni adolatli qiymatda baholash (IFRS 13) — mustaqil baholovchi talab qilinishi va bozor ma’lumotlari yetishmasligi;

– moliyaviy ijaralarni IFRS 16 bo‘yicha aktivlashtirishning soliq va balansga ta’siri;

– foydasizlik testlari (IAS 36 impairment test) — pul oqimlarini prognozlash metodologiyasini yetarli bilmaslik;

– konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotlar (IFRS 10, 11, 12) — guruh tarkibini belgilash va qo‘shish jarayonlarining murakkabligi;

– kechiktirilgan soliq aktivlari va majburiyatlari (IAS 12) — vaqtinchalik farqlarni aniqlash va hisoblash muammolari.

2023–2024-yillarda o‘tkazilgan so‘rovnomada 215 ta korxonaning bosh buxgalterlari va moliya direktorlari ishtirok etdi. Ular Toshkent shahri (46 foiz), Samarqand (14 foiz), Buxoro (11 foiz) va boshqa viloyatlardan bo‘lib, sanoat (38 foiz), savdo (29 foiz), qurilish (18 foiz) hamda moliya (15 foiz) sektorlarini qamrab oldi (2-jadval).

2-jadval.
IFRS ga o‘tish muammolari bo‘yicha korxonalar baholashi (n=215)

| Muammo turi | Juda qiyin (%) | Qiyin (%) | Moliyaviy yuk (%) |
|---|---|---|---|
| Malakali kadrlar yetishmasligi | 42 | 36 | 65 |
| Adolatli qiymatni aniqlash | 51 | 32 | 55 |
| IT tizimlarini yangilash | 38 | 33 | 82 |
| Ikki parallel hisobot yuritish | 39 | 35 | 71 |
| Soliq va IFRS ziddiyati | 33 | 36 | 40 |
| IFRS tarjimasi va terminologiya | 28 | 41 | 18 |
| Konsolidatsiyalashgan hisobot | 44 | 17 | 48 |
| Kechiktirilgan soliq hisob-kitobi | 37 | 29 | 33 |

**Manba:** so‘rovnoma ma’lumotlari (2023–2024), n=215 korxona.

2-jadval ma’lumotlari shuni ko‘rsatadiki, moliyaviy yuk nuqtayi nazaridan IT tizimlarini yangilash (82 foiz) va ikki parallel hisobot yuritish (71 foiz) eng og‘ir yuk sifatida baholanmoqda. Metodologik qiyinlik jihatidan esa adolatli qiymatni aniqlash (51 foiz — “juda qiyin”) va konsolidatsiyalashgan hisobot tuzish (44 foiz) birinchi

o‘rinlarda turadi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

O‘zbekiston korxonalari uchun IFRSga o‘tish — bu bir vaqtning o‘zida ham tizimli muammo, ham strategik imkoniyatdir. Muammolar to‘rtta asosiy yo‘nalishda namoyon bo‘ladi: kadrlar, me’yoriy-huquqiy, texnologik va metodologik muammolar. Ular bir-biri bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, kompleks yondashuvsiz har birini alohida bartaraf etish qiyin.

Ushbu muammolarni bartaraf etish maqsadida quyidagi tavsiyalar ishlab chiqildi:

**Davlat miqyosida:**

– IFRS standartlarini o‘zbek tiliga sifatli va o‘z vaqtida tarjima qilish hamda rasmiy nashr etish;

– soliq va IFRS hisobini birlashtiruvchi “ko‘prik jadval” (reconciliation table) metodologiyasini standartlashtirish;

– kichik va o‘rta korxonalar uchun soddalashtirilgan IFRS for SMEs standartlarini alohida tartibda joriy etish;

– davlat tomonidan ACCA va CIMA dasturlari bo‘yicha o‘qishni subsidiyalashtirish hamda xalqaro sertifikatlarni tan olish;

– milliy baholovchilar palatasi faoliyatini IFRS 13 talablariga moslashtirish.

**Korxona darajasida:**

– BHMS va IFRS o‘rtasidagi farqlarni tahlil qilish, xatarlar xaritasini tuzish hamda resurslarni baholash;

– kadrlarni o‘qitish, IT tizimlarini yangilash va jarayonlarni qayta loyihalash;

– BHMS va IFRS hisobini bir vaqtning o‘zida yuritish, xatolarni aniqlash va tuzatish;

– IFRS asosida rasmiy moliyaviy hisobotlarni tayyorlash.

Kelgusidagi tadqiqotlar uchun istiqbolli yo‘nalish sifatida IFRSga o‘tgan O‘zbekiston korxonalarining moliyaviy ko‘rsatkichlari dinamikasini longitudinal kuzatish hamda tarmoqlar kesimidagi qiyosiy tahlillarni amalga oshirish tavsiya etiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati**

1. O‘zbekiston Respublikasining 2016-yil 13-apreldagi “Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida” O‘RQ-567-son Qonuni. https://lex.uz/acts/-90762
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-fevraldagi “Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o‘tish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” PQ-4611-son Qarori. https://lex.uz/docs/-4746047
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 15-sentabrdagi “Moliyaviy hisob tizimini xalqaro talab va standartlarga muvofiq takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-282-son Qarori. https://lex.uz/uz/docs/-7728924
4. IFRS Foundation. *IFRS Accounting Standards — Required Jurisdictions*. – London: IASB, 2024.
5. Stephen A. Zeff. *The Evolution of the IASC into the IASB, and the Challenges It Faces* // The Accounting Review. – 2012. – Vol. 87(3). – P. 807–837.
6. M.X. Saidov. O‘zbekistonda buxgalteriya hisobining soliq tizimi bilan munosabati // Moliya va bank ishi. – 2023. – № 4. – B. 45–58.
7. B. Norov, A. Karimov. IFRS joriy etishning moliyaviy ko‘rsatkichlarga ta’siri: O‘zbekiston misolida // Iqtisodiyot va innovatsiyalar. – 2024. – № 2. – B. 112–128.
8. O‘zbekiston Buxgalterlar va Auditorlar Palatasi. *Yillik hisobot*. – Toshkent, 2024.

muhandislik
& iqtisodiyot
ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov
**Musahhih:** Zokir Alibekov
**Sahifalovchi va dizayner:** Abdurahmon Qurbonov

**2026. № 5**

© Materiallar koʻchirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida koʻrsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S–5669245 reyestr raqami tartibi boʻyicha roʻyxatdan oʻtkazilgan.
**Litsenziya raqami: №095310**.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**